UO‘K 821 512.133

ABDULLA QODIRIYNING BADIIY FALSAFASI
(birinchi maqola)

D.H. Quronov

Maqolada “O‘tkan kunlar”da har qanday yaxshi asardagi kabi badiiy falsafa mavjudligi, faqat uning dostoevskiyona yo tolstoyona mushohadalar tarzida emas, bevosita tasvir vositasida berilgani aytiladi. Ya’ni adibning qo‘yilgan muammo yuzasidan o‘ylovlariyu kelgan xulosalari – badiiy falsafasi tasvirlangan hayotiy holatlar, dialoglar va yo‘naltiruvchi muxtasar mushohadalarda mujassam. Shularni teran muhokama etish asnosi o‘quvchi mustaqil xulosalarga kelishi kerakki, ayni jarayondagi o‘ylovlarda asar badiiy falsafasi namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *roman, badiiy falsafa, tasvir, dialog, hayotiy holat.*

В статье утверждается, что в романе «Минувшие дни», как и в любом хорошем произведении, есть художественная философия, только представлена она не в форме философских рассуждений, как у Достоевского или Толстого, а непосредственно в изображенном. То есть выводы писателя относительно поставленной проблемы – его художественная философия - воплощены в изображенных жизненных ситуациях, диалогах и в кратких авторских рассуждениях. Путем их глубокого осмысления читатель приходит к самостоятельным выводам, в процессе чего и является ему художественная философия романа.

Ключевые слова: *роман, художественная философия, изображение, диалог, жизнення ситуация.*

Bundan chamasi o‘ttiz besh yillar avval, adabiy davralarning birida gap “nima uchun o‘zbek romanlari jahon miqyosida e’tirof etilmaydi?” degan savol tegrasida aylandi-yu, suhbatdoshlardan biri buni “romanlarimizda falsafaning yo‘qligi” bilan izohladi. O‘shanda “axir, masalan, “O‘tgan kunlar”da o‘ziga xos falsafa bor, faqat bu falsafa, aytaylik, dostoevskiyona yo tolstoyona mushohadalar tarzida muallif tilidan emas, tasvir vositasida berilgan” qabilida e’tiroz qilgandim. Biroq suhbat atmosferasi shunday ediki, e’tirozim hech singishmadi, fikrimni o‘tkaza olmadim, aniqrog‘i – fikrimni yetkaza olmadim. O‘shandan beri shu masalani yoritish istagida yashayman, biroq har gal shu ishga jazm qilganimda o‘zimda bir ojizlik, “o‘ylaganlarimni ifoda qila olamanmi? Yana o‘shandagidek yetkaza olmasam-chi?!” degan hadik-andisha tuyaman-da, paysalga solib kelaman. Vaqt esa ayovsiz o‘tib boradi... – so‘ng paytlarda “yaxshidir, yomondir – yozmasam bo‘lmaydi!” degan o‘y miyamga o‘rinlashdi-yu, hali-hanuz bir qadar sochqin, tumtaroq – hozirchasiga aytganda, fragmentar tarzda bo‘lsa-da, bu boradagi fikrlarimni bayon qilmoqqa jazm etdim.

“O‘tgan kunlar”ni eng avval ishqiy-sarguzasht roman deb tushunishga moyilmiz. Holbuki, go‘zal va qayg‘uli muhabbat tarixi zamirida mutafakkir bir zotning olam-u odam mohiyati haqidagi teran mushohadalari, badiiy falsafasi botil. Adib romanda chuqur dard bilan yoritgan, badiiy idrok etishga intilgan muammo ERK masalasi edi. Hozir jadidlar ijodi haqida so‘z borganda ularning markaziy muammosi *milliy erk* masalasi bo‘lganini ta’kidlaymiz. Abdulla Qodiriy chinakam san’atkor va gumanist sifatida bu muammoni juda keng qo‘ydi: *milliy erk masalasini shaxs erki masalasi bilan chambarchas bog‘lab talqin qildi.*

Romanning bosh qahramoni – Otabek haqida so‘z borganda ko‘pincha “adib unda o‘z idealini yaratgan” degan fikr qalqib chiqadiki, buni “adib unda o‘z idealini mujassam etgan” shaklida aytilsa to‘g‘riroq bo‘ladi. Negaki, realist san’atkor ideal obraz yaratmaydi, bu o‘rinda yozuvchi idealiga u yoki bu darajada muvofiq obraz haqidagina so‘z borishi mumkin, xolos. Sababi, hayotga monandlik talabi realistik inson obrazini butun murakkabligi, fe’lidagi musbat va manfiy tomonlari birligida gavdalantirishni taqozo etadi, zero, mutlaq ideal insonning o‘zi yo‘q. Shu ma’noda, tez-tez quloqqa chalinadigan “Otabek – ideal obraz” qabilidagi fikr yanglishdir. Abdulla Qodiriy yaratgan xarakterlarni shu prinsipga tayangan holda qarab chiqamiz.

Romanning ilk sahifalaridanoq Otabek insonni hurmat qiladigan, uning sha’ni va qadrini baland qo‘yadigan yigit sifatida taqdim etiladi. Karvonsaroy hujrasida uning Hasanaliga qilgan muomalasini kuzatib turgan Rahmat qiziqib so‘raydi:

“ - Bu kishi kimingiz bo‘ladilar, bek aka?

Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so‘ngra javob berdi:

- Qulimiz” [1. B. 9]*.

Otabekning bu o‘rindagi andishasi Hasanaliga hurmatdangina emas, umuman, inson zotiga hurmatdan oziqlanadi. Uning nazdida qullik – haqorat (shu bois ham javobni Hasanalini uzoqlatgachgina beradi), inson sha’niga nomunosib holat. Ayni paytda, bu – mavjud holat, Otabekkacha shakllangan va ko‘nikib bo‘lingan holat. Shu bois ham, garchi “ma’naviy ota” maqomida ko‘rsa-da, Otabek Hasanalini “qulimiz” deb biladi, shunday deb tanitadi. Biroq uning “qulimiz” degani ko‘nikish natijasi, xolos, – so‘z shakli asl mazmun-mohiyatidan ancha uzoqlashgan. Aksincha, atrofdagilar, masalan, Homid uchun unaqa emas, shuning uchun u Otabekning Hasanaliga muomalasini ko‘rib ajablanadi. Yoki namozdan turib o‘z mehmonxonasida Hasanalini ko‘rgan Ziyo shohichi hayron: “Hasanalining bu kelishi Ziyo aka uchun yot bir ish edi. Chunki, Hasanali Otabekning quli. Qullar bilan jiddiy muomalada bo‘linmoq, ayniqsa, Ziyo shohichilardek odamlarga favqulodda bir ish. Buning ustiga majburiyat ostida o‘zicha kelishi...” (40-bet). Ziyo shohichi Hasanalida avvalo qulni ko‘radi, shunday bo‘lsa-da, bir tomoni keksaligi, ikkinchi tomoni Otabekka qadrli ekanini bilganidan (“egasini siylagan itiga suyak tashlabdi” qabilida) u bilan “jiddiy muomalada bo‘ladi” – go‘yo marhamat qiladi unga: tilida “ota” deb tursa-da, jo‘yali mulohazalarini diqqat bilan tinglasa-da, baribir, qarshisidagi qul ekanligini biror lahza nazardan qochirmaydi. Sovchilikka borish qarori berilgach, “Hasanali undan so‘radi:

- Manim ham birga borganim ma’qulmi yoki yolg‘iz o‘zingiz?

Ziyo aka qo‘l silkib:

- Sizning borishingizdan zarar yo‘q,- dedi” (40-bet).

Ziyo shohichining “qo‘l siltab” turib “zarari yo‘q” deyishida ham aynan qulga munosabat bor: “yaxshi bo‘lardi” desa haqi ketadi, “zarari yo‘q” bilan esa ham “yaxshi bo‘lardi” deydi, ham hamon otidan tushmay marhamat qiladi.

O‘sha karvonsaroy hujrasidagi suhbatdayoq namoyon bo‘luvchi Otabekning ayollarga munosabati ham, aslida, umuman insonga munosabatining bir qirrasidir. Rahmat xotinning er “ta’biga muvofiq bo‘lishi” haqida aytganida Otabekning “oladirg‘on xotiningiz sizga muvofiq bo‘lishi barobarida er ham xoting‘a muvofiquttab’ bo‘lsin” deyishi ham ayol kishida inson o‘laroq haq-huquq borligining e’tirofidir. Ya’ni Otabek uchun qul bo‘lmish Hasanali ham, ayol kishi ham – eng avval inson, shuning o‘zi uni daxlsiz haq-huquq egasi etadi. Yusufbek hojining Toshkent boshqaruvidagi maqomi haqida Ziyo shohichiga javoban Otabek aytgan so‘zlar ham shu aqida asosida tushunilishi joiz. Yusufbek hoji mushovir sifatida “mahkumning gunohini so‘raganida Azizbek jallodga baqirar: “Tezroq olib chiq!” Otam tag‘in qulliq qilg‘anida jallodg‘a buyurar: “Qo‘lingdag‘ini bo‘shatib, o‘rniga hojini olib chiq!” Mana ko‘rdingizmi, otamning qadru qiymatini” (16-bet). Oxirgi jumladagi “mana ko‘rdingizmi...” xitobida insonga bu darajada bepisand munosabatdan lolu hayronlik, bu holga nisbatan kuch bilan bosib turilgan isyon aks etgan. Otabekni lol etgan narsa hokim qoshida otasining qadri bunchalar pastligigina emas – oddiy bir viloyat hokimida inson taqdirini hal qilish huquqi borligi! Uning mazkur hikoyasi daromadida *“Bizning beklarga hukm vaqtida ham mushovir bo‘lmoq imkonsiz narsadir”* (16-bet) degani ham shunga dalolat qiladi. Qizig‘i, mohiyatan xuddi shunday holat keyincha Otabekning boshida kechadi: O‘tabboy qushbegi uni avval dorga buyurib, keyin dor ostidan qaytaradi; Musulmonqul unga jallod chaqirib, ortidanoq yelkasiga chopon yopadi. Xo‘p, birinchi holda-ku “O‘tabboy qushbegi zamona hokimlarining tuzugi bo‘l”ganidan fikr-mulohaza qilgach hukmini berdi, ikkinchisida Musulmonqul o‘z qat’iy ishonchi va kayfiyatiga qaraboq hukm qilmadimi?! Ya’ni Toshkentni qamal qilgan Normuhammadning hech narsa chiqarolmay quruq qaytayotgani xabarini eshitgan va shu bois Azizbekdan achchiqlanishi haddi a’losiga *etib* turganining o‘zi Otabekka hukm chiqarish uchun yetarli asos bo‘lmadimi?! Otabek illatning ildizini inson qo‘liga berilgan mutlaq hokimiyatda ko‘rmayaptimi?! Aniqrog‘i, syujetda mohiyatan o‘xshash holatlarni ongli ravishda takrorlayotgan adib Otabek vositasida *inson qo‘lida mutlaq hokimiyat halokatli* ekanligini ta’kidlamoqda.

Gapni inson erki masalasidan boshlab beixtiyor mutlaq hokimiyat masalasiga o‘tib ketganimiz g‘alat ko‘rinsa ehtimol. Lekin haqiqatda ular bir-biriga chambarchas bog‘liq masalalar. Zero, erk insonning haq-huquqiga daxl qilinmasligi, o‘z fikrini ochiq ayta bilishi, shaxsan o‘zining hayotiga bog‘liq masalalarda oxirgi so‘zni ayta olishi, sha’ni himoya qilinganligi kabilarni taqozo etadiki, mutlaq hokimiyat – *mustabidlik* asli shularning kushandasidir. Darvoqe, shu o‘rinda aniqlashtirib olish zarurati tug‘iladi: “mustabid” – mutlaq hokimiyat egasini, “mustabidlik” istilohi eng avval shunday hokimiyatga asoslangan siyosiy tuzumni, davlatni anglatadi. Biroq istilohning yana bir ma’nosi borki, bu ma’nosida u “demokratlik”, “liberallik” singari mavhum tushuncha (xususiyat) larni anglatuvchi otlar qatoridan joy olib, “o‘zganing haq-huquqi, fikri, erki, sha’nini e’tiborga olmaslik”

* Keyingi ko‘chirmalar shu manbadan olinadi va sahifa raqami ko‘rsatiladi – D.Q.

ma’nosini ifodalaydi. O‘z navbatida, sanalgan otlardan ayni xususiyatga egalikni bildiruvchi nisbiy sifatlar (“demokratik”, “liberal”, “mustabid”) hosil bo‘ladiki, ular ham iste’molda g‘oyat faol. Xullas, bundan keyingi mulohazalarimizda ushbu istilohlar ko‘p qo‘llanadi, aniqlik kiritib o‘tish zarurati shundan.

Abdulla Qodiriy talqinida mustabid tuzum jamiyat a’zolarining hammasida – xondan boshlab to oxirgi faqirga qadar o‘z muhrini qoldirgan, faqat buning namoyon bo‘lishi turlicha. Xonu beklardagi mustabidlik-ku, tushunarli – qo‘llaridagi hukumatdorlik vakolati bilan izohlanar, oddiy kishilardagisi-chi? Deylik, “biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq...” deb aytib turgan ota-onaning xatti-harakati zamirida mustabidlikdan asar seziladimi yo‘qmi? Axir, o‘g‘lining mankuhasiga muhabbati va ikkinchi bor uylanishga qarshiligidan xabardor Yusufbek hoji ham shuncha vaqt qarshi turdi, lekin o‘rtaga qo‘yilgan *“sababi vujuding bo‘lg‘an bir kishi o‘z hayoti ichida bolasi orqaliq bir orzu-havas kechirmakchi...*” (136-bet) degan vaj ham chakana emas-da?! O‘zbek oyim-ku, *“dumbul tabiat”* – halitdan birovni ishontirib qo‘ygan, Yusufbek hoji hamma tomonlarini obdon o‘ylab, shunday qilish zarurligini qayta-qayta mulohaza etgach ham shu qarorga kelyapti, axir. Shunda ham onangning *“bu orzusig‘a haq berasanmi, yo‘qmi yana ixtiyor o‘zingda”* deydi, ya’ni oxirgi so‘zni Otabekda qoldiradi go‘yo. Hammasi to‘g‘ri, biroq Yusufbek hoji aytayotgan gaplarning mantiqiyu hissiy tonalligi to‘lasicha Otabekdan rozilik olishga yo‘naltirilgani, ya’ni irodasini sindirishga qaratilgani ham kundek ravshan. Zero, *“turmushning rukn va asosini”* aytsa, Otabekning *“shu muhitning bir o‘g‘li bo‘lib eshitishi”*ga ishonadi. Otabek bu *“qonung‘a qarshi chiqish uchun lozim bo‘lg‘an kuchka molik emas; bas, kuchsizlikning natijasi esa sukut”.* Chor-nochor rizoligini sukut bilan bildirgan o‘g‘il ota-ona orzusiga yon berishdan “*anuv ilohiy muhabbat uchun <…> kamchilik kelmasiga ishonadi”*, biroq *“yuragini boshqa bir haqiqat tirnay boshlag‘an va vijdonini faqat shu masalagina o‘rab olg‘an edi”.* (136-bet) Muallif ushbu qayd bilan qanoatlanmaydi, chog‘i, yana ayricha ta’kidlab bu masala Otabek nazdida *“eng nozik sanaladi”* deydi. Fikrimizcha, adib bu bilan o‘quvchisini shu masalaga diqqat bilan qarashga da’vat qiladi. Tabiiyki, bu qadar ta’kidlanayotgan nuqtaga biz ham ayricha diqqat qilishimiz zarur, shunday qilamiz:

“– Men sizlarning orzularingizni bajarishka – agar xursandchili-g‘ingiz shu bilan bo‘lsa – har vaqt hozirman. Ammo bir bechoraga ko‘ra-bila turib jabr ham xiyonat...

Hoji o‘g‘lining maqsadig‘a darrov tushuna olmadi va so‘radi:

– Kimga, xotiningg‘ami?

– Yo‘q, sizning oladirg‘an kelinigizga. O‘g‘lingizning vujudi bilan orzuyingizni qondirish oson bo‘lsa ham kelinigiz qarshisida meni bir jonsiz haykal o‘rnida tasavvur qilingiz”. (137-bet)

Paradoks shundaki, Yusufbek hojidek ziyrak odamning “darrov tushuna olmagani” aslida epizod mohiyatini to‘g‘ri tushunishga yo‘naltiradi, kalit bo‘lib xizmat qiladi. Hojining anglamay qolgan joyi – “bir bechoraga ko‘ra-bila turib jabr va xiyonat” deyilganida haqiqatan ham gap kim haqida borayotganini birdan anglab olishga mone’lik bor. Sababi, “xiyonat” deyilishi bilan o‘quvchi xayoli Kumush tomon ketadi, ya’ni Otabek “ikkinchi uylanishini Kumushga xiyonat deb aytyapti” mazmunida tushuniladi. Holbuki, asarda tasvirlangan davr voqeligi nuqtayi nazaridan bu o‘rinda Kumushga nisbatan hech qanday xiyonat fakti mavjud emas. Shu bois Yusufbek hoji javoban “Kimga, xotiningg‘ami?” deya ajablangansimon so‘raydi, uning savoli zamirida “xotiningga xiyonat yo‘q-ku!” degan ta’kid yotadi. Savoldagi ta’kid ohangida esa “buni o‘zing ham bilasan-ku!” ma’nosi ham borki, shu sababli Otabek javobida xiyonat obyektini aniq qilib belgilayapti. Ya’ni u “olinadirg‘an keling‘a” – Zaynabga xiyonat haqida gapiryapti, chunki uning qarshisida “bir jonsiz haykal” bo‘lishga qaror bergan. Holbuki, Zaynabni nikohiga olar ekan, Otabek shar’iy xotin o‘laroq uning o‘zida haqlari bor ekanligini tan olgan bo‘ladi, demak, “jonsiz haykal” bo‘lishi mankuhasi haqiga xiyonatdir. Abdulla Qodiriy e’tiborni boshqa bir muhim nuqtaga – shu qarori bilan Otabek o‘zga shaxs haq-huquqini toptayotganiga e’tiborni qaratmoqda. Zero, u ota-ona orzusiga oxirigacha qarshi turolmasdan Zaynabni nikohiga oladi – uning qarshisida “jonli haykal bo‘lish”ga qaror bergani holda guvohlar ishtirokida “qabul qildim” deydi. Ya’ni bu bilan Otabek o‘z qarashlariga tamoman zid ish qildi: inson haq-huquqi, erki va sha’nini daxlsiz deb biluvchi odam Zaynabning haq-huquqini toptaydi – *vujudida botin mustabidga taslim bo‘ladi.* Yusufbek hojiga qaytsak, uning mashhur *“bizning oiladan lafzsizlik chiqishi menga ma’qul ko‘rinmaydir”* degan gapi aslida hukm ediki, Otabekning bunga “o‘z ta’biricha jonsiz haykal bo‘lib rizoliq berishi” muqarrar edi. Zero, Yusufbek hoji qat’iy qarorga kelib bo‘lgan, gapni “biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq” deb boshlagani maqsad o‘g‘liga maslahat solmoq emas, qarorini bildirib qo‘ymoq ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni har ne mulohazali va halimlik bilan so‘zlamasin, hojining fe’liyu tutumida ham *mustabidlik* sifati botindir.

Yusufbek hoji qaroridagi qat’iyatni “andishaning bandasi” ekanligi bilan izohlaydi, ya’ni qaror chiqarishda erkin emasligi, atrofdagilar nazdida “lafzsiz” bo‘lib qolishni istamasligini tan oladi. Hech shubhasiz, lafzi halollik – milliy qadriyat va oila boshlig‘i o‘la-

roq hojining xonadon obro‘sini o‘ylashi tabiiy, albatta. Lekin tarozining ikkinchi pallasida insonning haq-huquqi masalasi turibdi-ku?! Shunday, buni Yusufbek hoji ham juda yaxshi biladi, biroq *“o‘g‘lining so‘zini to‘g‘rilig‘ig‘a, keyindan yuz ko‘rsataturg‘an ko‘ngilsiz ishlarga aqli etsa ham, ammo bir mulohaza yuzasidan istiqbolning qorong‘i ishlarini hozir uncha mulohaza qilib ko‘rmadi”.* (137-bet) Ko‘rib turganimizdek, hojining tarozisida “bir bechoraning haq-huquqi”dan ko‘ra “lafzi halollik” ko‘proq tosh bosdi. O‘z-o‘zidan ravshanki, adolat tomoni tutilsa, “ishontirib qo‘yilgan kishilar”dan uzr so‘ralishi va unashtiruv bekor qilinishi kerak edi. Tabiiyki, bu lafzsizlikni bo‘yniga olish – Yusufbek hoji obro‘siga putur yetdi degani bo‘ladi. Shundayku-ya, biroq hojining aqli etib turgan ehtimoldagi *keyindan yuz ko‘rsataturg‘an ko‘ngilsiz ishlam*ing oldi olinishi va o‘zganing haqiga xiyonat bo‘lmasligi shunga arzimaydimi? Diqqat qiling: bu savolni men qo‘yganim yo‘q, Abdulla Qodiriyning o‘zi qo‘ygan! Shundayki, u tasvirlanayotgan hayotiy holatlarning shunday chizgilarini bo‘rttiradiki, o‘quvchi xayolida beixtiyor shu savollar qalqib chiqadi, uni ham tafakkur qilishga undaydi. Ya’ni adib shunchaki tasvirlamaydi, yo‘q, u tasvirlash jarayonida idrok etadi va anglamlarini tasvirning o‘zida ifodalaydi. Demoqchi bo‘lganim, asarda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, turfa hayotiy holatlar zamirida, personajlarning o‘zaro munosabatlari, gap-so‘zlari, o‘y-xayollari mag‘zida Abdulla Qodiriyning teran badiiy falsafasi botindir. Xo‘p, endi adib qo‘ygan savol javobiga biroz shoshmaylik-da, mohiyatan xuddi shunga o‘xshash holat Kumushning ikkinchi turmushga uzatilishi bilan bog‘liq holda ham yuzaga kelishini eslaylik. Qutidorning turmushi buzilgan qizini loyiq-qobil joyi chiqsa berib qutulish istagi qanchalar tabiiy bo‘lsa, *“suygan va muhabbat qo‘yg‘an eridan buncha uyatsizlik, bu yanglig‘ vafosizlik ko‘rgan”* Kumushning qayta er qilish haqida eshitishni ham istamasligi undan-da tabiiy. Faqat shunisi borki, xuddi Yusufbek hoji singari, qutidor ham “andishaning bandasi” bo‘lib qolgan: *“Salim sharbatdorniki qutidorg‘a nihoyatda ma’qul tushib qolg‘an edi. Shuning uchun xotini va qizidan so‘rab o‘lturmay bir kun do‘konidan erkak sovchilar bilan bitishib ham”* qo‘ygan. (211-bet) To‘g‘ri, uyiga shuncha sovchilar kelib turganda nikohdan chiqqan qizini joyini topib uzatmaslik urfga xilof, el ichida gap-so‘zlar ko‘payadi. Hammaga ayonki, ertami-indin Kumush uzatiladi, yo‘qsa ota-onasiga yostiq bo‘larmidi. Sirasi, buni Kumush ham ich-ichida biladi, buning muqarrarligiga ham aqli yetadi, faqat hali yurakda alam o‘ti pasaymagan-da, bil’aks, butun “er zotiga” tutashib yotibdi. Xullas, shunday bir vaziyatda Kumushning ota-onasi *“tuzukrak joyini ko‘zlar edilar. Kutilmagan erga shaharning eng olding‘i a’yon va sarvatdorlaridan bo‘lgan Salim sharbatdor deganning Komilbek ismlik o‘g‘lidan sovchilar kelib qoldi”.* (208-bet) Adib hayotiy vaziyatni shunday tasvirlaydiki, o‘quvchi qutidorni “tushunadi”, uni oqlay boshlaydi: “uyam qizining baxtini o‘ylayapti-da, loyiq-qobil joyi chiqibdimi – berish kerak, shuncha sovchilarga rad javobi berilavergach, hademay sovchilar qadami ham uziladi, keyin bunday joy chiqadimi, yo‘qmi?!” Shunaqa o‘ylar ta’sirida qutidor “xotini va qizidan so‘rab o‘lturmay” fotiha qilib yuborganiga afsuslanadi, endi u “*o‘z xatosini onglag‘an, chunki har kun deyarlik Salim sharbatdornikidan kelib to‘y kunini so‘rag‘uchi kishiga turlik-turlik bahonalar ayta berib zerikkan va uyatidan do‘konga tushishni-da tark qilish fikriga kelayozgan”* (212-bet) – xuddi Yusufbek hoji kabi andisha bandasi bo‘lib qolgan. Xullas, qutidor Kumushning ixtiyorini hisobga olmagan holda o‘z hukmini o‘tkazadi, mustabidlarcha yo‘l tutadi.

Ma’lumki, har qanday takror ta’kidlashni – muhim nuqtaga e’tiborni kuchaytirishni maqsad qiladi, jumladan, syujet takrori ham. Mohiyatan bir-biriga o‘xshash ikkita hayotiy holatning tasvirlanayotgani, ikkalasida ham personajlar – Yusufbek hoji va Mirzakarim qutidorni ma’lum qarorga olib kelgan sabablar atroflicha tavsiflab berilayotgani ham bejiz emas – aniq maqsad ko‘zlanadi.

Birinchidan, Abdulla Qodiriy o‘quvchisining hayotiy holatni jiddiy mushohada qilishini, uni biryoqlama tushunishining oldini olishni istaydi. Darhaqiqat, tafsilotlarni nazardan qochirmagan ziyrak o‘quvchi har ikki holatda ham ayblashga shoshmaydi – Yusufbek hojini ham, qutidorni ham tushunishga harakat qiladi. Tushungach esa, *ikkinchidan*, beixtiyor holat mohiyatini butunicha teran mushohada etishga o‘tadi – uning mag‘zini chaqishga, adib ta’kidlab aytmoqchi bo‘lgan ma’nolarni anglashga harakat qila boshlaydiki, shu jarayonni kuzatishga urinib ko‘ramiz.

Xo‘p, ikkala holatda ham ta’kidlangan nuqtalar: 1) hoji ham, qutidor ham qarorga majburiyat ostida keladilar; 2) Otabek ham, Kumush ham majburiyat ostida qarorga bo‘yinsunadilar. Ikkala holat ishtirokchilari ham “ijobiy” deb sifatlanuvchi personajlar, ya’ni na Yusufbek hojini, na Mirzakarim qutidorni zolim deyishga; na Otabekni, na Kumushni “passiv” deya malomat qilishga tili boradi kishining. Sababi, masalan, o‘quvchi Otabekka qo‘shilib ich-ichida “ota-ona orzusini bir tomchi ko‘z yoshingizga arzitdimmi” deyaverishi mumkin, lekin xuddi shu payt qulog‘ida Yusufbek hojining “sababi vujuding bo‘lg‘an bir kishi o‘z hayoti ichida bolasi orqaliq bir orzu-havas kechirmakchi... Uning bu orzusig‘a haq berasanmi, yo‘qmi yana ixtiyor o‘zingda...” degani ham jaranglab turadi. Yusufbek hoji bejiz “haq berasanmi” degani yo‘q: garchi o‘zi O‘zbek oyimning harakatini orzu-havas

deb atayotgan bo‘lsa-da, uning haq masalasi bilan qorishib ketayotganini teran his qiladi. Darhaqiqat, jiddiy o‘ylab qaralsa, Otabekning uylanishdagi erki ayni paytda O‘zbek oyimning haqiga tajovuz ekani ham ko‘rinadi. Zero, qutidor unashtirish oldidayoq *“sovchilarg‘a rizolig‘imizni bildirib, ammo Kumushni Marg‘ilondan olib ketmaslikni shart qilaylik”* degan. Keyinroq, qutidorning *“San aytkancha kuyaving Toshkanddan ikkinchi uylanmasin-da, Kumushni qudalaring oldig‘a turg‘un qilib yuborayliq”* degan taklifiga qarshi Oftob oyim *“biz qizimizni berishda Marg‘ilondan tashqarig‘a olib ketmas va’dasi bilan berganmiz”* deb ro‘kach qiladi. Yusufbek hoji qudasiga maktubida Otabekni uylash qarorini *“yagona o‘g‘limizni farzandlikka qabul qilib, ammo bizning kelin bolamizni Toshkandga yubormag‘anlari”* bilan asoslaydi. Yo‘q, hoji qudalarni ayblamaydi: qizlarini Toshkentga yubora olmasliklari tabiiy, chunki *“bizning boshimizda bo‘lg‘an “yolg‘iz tuyoqliq” savdosi sizning ham boshingizda bor”* (145-bet). Xuddi shu “yolg‘iz tuyoqlik”da qudasiga hamdardlik qutidorni *“Oftob oyim kutmagan joyda tamoman Otabekni ikkinchi uylantirish tarafida turib so‘zlash”* (145-bet) ga majbur etadi. Ayni shu mavqedan turib va’dani ro‘kach qilgan xotiniga *“biz Otabekdan bu va’dani olg‘an choqda, “Ota-onang‘dan kechasan, ikkinchi uylanmaysan” degan va’dani ham olg‘anmi edik?”* deydi. E’tibor bering, vaziyatga qudalari ko‘zi bilan qarab ko‘rgan qutidor ikkinchi uylanmaslik bilan ota-onadan kechishni bir qatorga qo‘ymoqda. Ha, ilk ko‘rganidayoq *“xudo kishiga o‘g‘il bersa shundayini bersin-da”* deya Otabekka mehr qo‘ygan va hech kutmaganida kirib kelgan sovchilar qiziga og‘iz solganlaridayoq uni kuyov-o‘g‘il qilishga ko‘ngli chopgan Mirzakarim qutidor bu tomonlarini jiddiy o‘ylamagan edi...

Xullas, har ikki holatni mushohada qilganing sari inson erki, haq-huquqi degan tushunchalar mutlaq emas, aksincha, ular muayyan bir chegaragacha amal qilishi mumkinligini istasang-istamasang e’tirof etasan. Modomiki inson jamiyatda yashar ekan, *uning erki, haqi, huquqi boshqa bir odamning erki, haqi, huquqiga daxl qilmasligi shart.* Aks holda, ya’ni agar bu shart buzilsa – haddan oshilgan bo‘ladi, o‘zaro munosabatlarda chigalliklar yuzaga keladi. Xuddi shu qonuniyat insonlararo munosabatda ham, alohida inson bilan jamiyat munosabatida ham birdek amal qiladi. Faqat, nachora, hayot murakkab, manfaatlar to‘qnashganida aksar “men” oldinga chiqadi, “o‘zga” nazarga ilinmay qoladi. Deylik, Otabek Kumushga muhabbat qo‘yishda erkin edi, lekin uylanish masalasida ota-onasining manfaatini nazarga olmadi; o‘z navbatida O‘zbek oyim esa o‘z manfaatini o‘ylab endi o‘g‘lining erkiga daxl qila boshladi va hokazo. Tan olish kerak, ko‘pchilik ikki yoshning muhabbati “ota-ona orzusi” tufayli fojiali yakun topdi deb biladi. Sirasi, bir qarashda Abdulla Qodiriy ham shu fikrda go‘yo: uning, masalan, O‘zbek oyim ta’rifida aytgan gaplari o‘quvchi qulog‘iga ayblovdek eshitiladi-da! Holbuki, yuqorida ko‘rdik, adib muammoning tub mohiyatiga nazar soladi. Asarda chizilgan hayotiy holatlar, dialoglar, muallif mushohadalari – bari masala g‘oyat chigalligi, uni jo‘ngina bir tomonga hal qilib bo‘lmasligini ta’kidlab turadi go‘yo. Ayni hol o‘quvchini o‘ylashga, tasvirlangan hayotiy holatlarda namoyon etilgan turfa – ma’naviy, axloqiy, maishiy, ijtimoiy, huquqiy va hokazo muammolarning eng maqbul yechimini topishga undaydi. Zero, adib yaratgan obrazlari vositasida voqelikni idrok etishga intilgan ekan, bas, endi o‘quvchi uning anglaganlarini shu obrazlar mag‘zidan anglab olmog‘i kerak. *Ya’ni adibning qo‘yilgan muammo yuzasidan o‘ylovlariyu kelgan xulosalari – badiiy falsafasi tasvirlangan hayotiy holatlar, dialoglar va muallifning yo‘naltiruvchi muxtasar mushohadalarida mujassam.* Shularni atroflicha va teran muhokama etish asnosida o‘quvchi mustaqil tarzda muayyan xulosalarga kelishi kerakki, ayni jarayondagi o‘ylovlarida unga adibning badiiy falsafasi namoyon bo‘ladi. Aksariyat o‘quvchilarning o‘ylovlari, tajribaning ko‘rsatishicha, “ikki yoshning go‘zal muhabbat qissasi fojiali yakun topishiga kim sababchi?” degan savoldan boshlanadi. Xo‘sh, kim aybdor – kelin ko‘rishni orzulagan O‘zbek oyimmi? Oxirigacha xotinga mahkam tur(ol)magan Yusufbek hojimi? Marg‘ilondan olib ketmaslik shartini qo‘yib qiz uzatgan qutidormi? Kumushni Toshkentga yuborishga qarshi turgan Oftob oyimmi? Xiyonatkor Homidmi... – savollar silsilasi adoqsiz kabi – nazdingda “kim ko‘proq aybdor”liga qarab sanoq tartibini o‘zgartirib yana bir boshdan takrorlayverasan – to‘xtam yo‘q kabi. Holbuki, adibning o‘zi takror-takror HAMMASI TAQDIRDAN deb turadi:

Hasanali Otabekning shu paytgacha ham uylanmaganini *“Avval taqdir bitmaganlik”*da deb tushuntiradi.

Ziyo shohichi sovchilikka borish qarorini berganida Hasanali *“Taqdir bitkan bo‘lsin-da”* deya umidlanadi.

bemahalda kelishlari sababini Ziyo shohichi mezbonga *“kunlardan bir kun taqdir shamoli yuradir-da bir kimsa-ning iffat pardasi ostida o‘lturgan qizining yuzidagi niqobini ko‘tarib ikkinchi tomondan bizning Otabekni shu afifaga ro‘baro‘ qiladir”* deb anglatadi.

ayoli bilan maslahatlashgani kirgan qutidor *“taqdir bitkandanmi, nimadan bo‘lsa ham bu yigitka qarshi ko‘nglim jizillab turadir”* deydi.

Usta Alim bo‘lib o‘tgan ishlarni hikoya qilib bergach, *“Hammasi ham taqdirning ishi, amak, bu orada*

siz bilan manim hech bir ixtiyorimiz yo‘q” deya qutidorni tinchlantirmoqchi bo‘ladi.

Otabekning Toshkentga *“ketib qolish*” oldida Kumushga yozgan xatida *“Har holda taqdirning bunchalik o‘yinlari turg‘an bir zamonda biz nima ham qila olur edik?”* degan savol qo‘yilgan.

Zaynabni kalaka qilgan so‘z o‘yinini Kumush *“U ham emas, bu ham emas, hammasi xudoning taqdiri”* deb xulosalaydi...

E’tibor bering: qazoi qadarga iymon keltirgan odam o‘laroq Abdulla Qodiriy *hammasi taqdirdan* deya tinimsiz takrorlamoqda. Biroq zamona ravishi endi tamom o‘zgargan: roman yozilgan davrga kelib tarix sahnasiga *yangi – inson o‘z taqdirini o‘zi yaratadi degan aqidani dasturulamal etgan va shunga beshak ishongan odam* chiqqan. U o‘z hayotidagi holatlar sababini ham, ijtimoiy hodisalar omillarini ham taqdiri ilohiydan emas, odamning fe’l-atvori, irodasi-yu amallaridan qidiradi. Hech shubhasiz, yangi odamning yangicha qarashlari yozuvchini ozmi-ko‘pmi o‘z ta’siriga olgan, shu ma’noda *yuqoridagi takrorlar muallif ongidagi kurash in’ikosi,* hatto, uning uchun *himoya reaksiyasi* deyilsa ham xato bo‘lmaydi. Zero, adib hayotning ravishi insonning yangilanishini taqozo etayotganini teran anglab turadi, biroq mohiyatan inqilobiy qarashlarga qo‘shilib ketolmaydi – ko‘ngli bunga yo‘l bermaydi. Ya’ni uning qarshisida yana bir ulkan ijtimoiy-falsafiy muammo ko‘ndalang bo‘ladiki, bu boshqa bir alohida maqola mavzusidir.

Adabiyotlar:

1. *Қодирий А*. Ўткан кунлар; Меҳробдан чаён: Рўмонлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 656 б. [Internet manba]. URL: http://ferlibrary.uz/f/ abdulla_kodiriy_utgan_kunlar_ merobdan_chayen.pdf (Murojaat etilgan sana: 02.12.2023)

2. *Карим Б*. Теваракдан шом азони эшитиладир (Роман ичидаги замон). [Internet manba]. URL: https://adabiyot.islamonline.uz/adabiyotshunoslik/666-maqola.html (Murojaat etilgan sana: 20.12.2023)

3. *Қодирий А*. Диёр бакир. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 458 б.

4. *Султонов Х.* Бобурнинг тушлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1993. – 272 б.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. // А.Мадвалиев таҳрири остида. 5 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 671 б.

6. *Норматов У*. Қодирий мўъжизаси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 272 б.

7. *Қодирий А*. Суддаги нутқ // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 1989 йил 1 декабрь.

8. *Норматов У*. Қодирийни қўмсаб. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – 76 б.

9. *Норматов У.* Қодирий боғи. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – 220 б.

10. *Qodiriy A*. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2004. – 384 b.

ARTISTIC PHILOSOPHY OF ABDULLA QADIRI (first article)

D.H. Kuronov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 1(77) 36-42.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: novel, artistic philosophy, image, dialogue, life situation.

In the article, it is said that there is an artistic philosophy in “Utkan kunlar” (Days by Gone), like in any good work, only it is not presented in the form of Dostoevsky’s or Tolstoy’s observations, but directly through the image. That is, the writer’s thoughts and conclusions about the given problem are embodied in life situations, dialogues, and guiding brief observations describing his artistic philosophy. However, the life situations, dialogues, author’s observations depicted in the novel - everything seems to emphasize that the issue is extremely complicated and that it cannot be solved in one direction. At the same time, it encourages the reader to think, to find the most optimal solution to the various problems

- spiritual, moral, domestic, social, legal, etc. - presented in the described life situations. After all, since the writer tried to perceive reality through the images he created, now the reader should understand what he understood from the core of these images. That is, the writer's thoughts and conclusions about the given problem are embodied in life situations, dialogues, and brief observations of the author describing his artistic philosophy. During the detailed and in-depth discussion of these, the reader should come to certain conclusions independently, and the writer's artistic philosophy will be revealed to him in his thoughts during the same process.

It is important to understand "Utkan kunlar" (Days by Gone) as a romance-adventure novel. However, at the heart of the beautiful and sad history of love, there are profound observations and artistic philosophy of a thinker about the human nature of the world. The problem that author covered with deep pain in the novel and sought artistic understanding was the problem of will. Now, when it comes to the creativity of the Jadids, we emphasize that their central problem was the issue of national will. Abdulla Khadiriy, as a true artist and humanist, put this problem very broadly: he interpreted the issue of national will closely connected with the issue of individual will. The novel begins with the question of human will, and then moves to the question of absolute power. In fact, they are closely related issues. After all, freedom requires that a person's rights are not violated, that he can express his opinion openly, that he can say the last word in matters related to his personal life, and that his honour is protected. Here it is necessary to clarify: "authority" means the owner of absolute power, the term "authority" means first of all the political system based on such authority, the state. However, revolution has another meaning, in this sense, it takes a place among nouns denoting abstract concepts (characteristics) such as "democracy", "liberalism" and expresses the meaning of "not taking into account the rights, opinions, will, and honour of others". On the other hand, from the listed nouns, relative adjectives indicating ownership of the same characteristic ("democratic", "liberal", "stable") are formed, which are also very active in consumption. So, the writer instills in the work the idea that a person cannot be free in an unfree society, and a society without a free person cannot be free.

References:

1. Kadiri, A. (1994) *O'tkan kunlar; Mehrobdan chayon: Ro'monlar* [Gone days; Scorpion from the Altar: Novels]. Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. http://ferlibrary.uz/f/abdulla_kodiriy_utgan_kunlar_merobdan_chayen.pdf (Date of Access: 02.12.2023)

2. Karim, B. Tevarakdan shom azoni eshitiladir [The evening call to prayer is heard from Tewarak]. [Online]. URL: https://adabiyot.islamonline.uz/ adabiyotshunoslik/666-maqola.html (Date of Access: 20.12.2023)

3. Kadiri, A. (2007) *Diyor bakir* [Diyarbakir]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

4. Sultonov, X. (1993) *Boburning tushlari* [Babur's dreams]. Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

5. Madvaliev, A. (ed,) (2006) O'zbek tilining izohli lug'ati [An explanatory dictionary of the Uzbek language]. In 5 volumes. Vol. 2. Tashkent: "O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

6. Normatov, U. (2010) Qodiriy mo'jizasi [Qadiri's miracle]. Tashkent: O'zbekiston.

7. Kadiri, A. (1989) Suddagi nutq [Speech in court]. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. December 1.

8. Normatov, U. (1994) Qodiriyni qo'msab [Missing Qadiriy]. Tashkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.

9. Normatov, U. (1995). Qodiriy bog'i [Qodiri's park]. Tashkent: Yozuvchi.

10. Kadiri, A. (2004) O'tkan kunlar [Gone days]. Tashkent: Sharq.

Muallif haqida ma'lumot:

QURONOV Dilmurod Haydaraliyevich – Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori. E-mail: kuronov@rambler.ru